ACADEMIA ONE
PEER REVIEWED JOURNALS

Diversity Research: Journal of Analysis and Trends
Volume 3, Issue 04, April 2025
ISSN (E): 2810-6393
Website: https://academiaone.org/index.php/2

# O‘Qitishda Ta’limiy Metodlarni Muvofiqlashtirishning Ilmiy-Mazariy Asoslari

**Shonazarov Adhamjon Odiljonovich**
**Namangan davlat texnika universiteti o‘qituvchisi**
**E-mail: shonazarovadham76@gmail.com**
**Tel: +998934985036**
**Soliyev Doniyor Zokirjonovich**
**Namangan davlat texnika universiteti o‘qituvchisi**
**E-mail: doniyorsoliyev16@gmail.com**
**Tel: +998976268844**

***Annotatsiya***

*Ushbu maqolada grafik fanlarni o‘qitishda ta’lim metodlari muammosining dolzarbligi va ilmiy-nazariy asoslari tahlil qilinib, talabalarda o‘qitishda ta’lim metodlarning tasnifi, nazariy va amaliy asoslarining mazmuni hamda mohiyati yoritilgan. Shuningdek, maqolada tajriba ishlarining dastlabki nazorat natijalari hamda ta’lim metodlarining mavjud holatlari haqida ma’lumotlar keltirilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** ta’lim metodi, metodlar tasnifi, o‘qitish usuli, ta’lim jarayoni, ta’lim tizimi, ta’lim texnologiyasi.

# Научные Основы Координации Образовательных Методов В Обучении

**Аннотация**

В данной статье анализируется актуальность и научно-теоретическая основа проблемы образовательных методов в преподавании изобразительных предметов, содержание и сущность классификации, теоретические и практические основы образовательных методов в обучении студентов. Также в статье представлена информация о результатах предварительного контроля экспериментальной работы и современном состоянии методов обучения.

**Ключевые слова:** *метод обучения, классификация методов, метод обучения, образовательный процесс, образовательная система, образовательная технология.*

# Scientific And Theoretical Basis Of Harmonization Of Educational Methods In Education

**Abstract**

This article analyzes the relevance and scientific and theoretical foundations of the problem of teaching methods in teaching graphic subjects, and highlights the classification, theoretical and practical foundations and essence of teaching methods in teaching students. The article also presents information on the preliminary control results of experimental work and the current state of teaching methods.

**Keywords:** educational method, classification of methods, teaching method, educational process, educational system, educational technology.

**KIRISH.** Mamlakatimizda jahon talablari darajasida ta’lim-tarbiya olishi va kasb-hunar egallash, fuqarolarimizning bunyodkorlik salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun zarur

*Diversity Research: Journal of Analysis and Trends*
Volume 3, Issue 04, April 2025
ISSN (E): 2810-6393
Website: https://academiaone.org/index.php/2

shart-sharoitlar hamda imkoniyatlar mavjud. Yangi sharoitlardan kelib chiqib O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga, ta’lim bosqichlarining uzluksizligi va izchilligini ta’minlash, ta’limning zamonaviy metodologiyasini yaratish, davlat ta’lim standartlarini kompetensiyaviy yondashuv bo‘yicha takomillashtirish va amaliyotga joriy etishni taqozo etib kelmoqda. Bu haqida Prezident Sh.M.Mirziyoyev quyidagicha ta’kidlaydi: “Barchamiz yaxshi tushunamiz, ta’lim-tarbiya har qaysi davlat va jamiyatning nafaqat bugungi, balki ertangi kunini ham hal qiladigan eng muhim ustuvor masaladir [1].

Ta'lim sohasida samarali o'qitish usullarini aniqlash va qo'llash har bir pedagogning muhim vazifasidir. O'qitish jarayonining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun metodikalar va metodlarning to'g'ri tanlanishi, ularni muvofiqlashtirish juda muhim ahamiyatga ega. Bu maqolada ta'limiy metodlarni muvofiqlashtirishning ilmiy-mazariy asoslari, pedagogik nazariyalar, metodlarning integratsiyasi va amaliyotdagi o‘rni tahlil qilinadi.

**TADQIQOT MAVZUSI BO‘YICHA ADABIYOTLAR TAHLILI.** Ma‘lumki, ta’lim metodlari bo‘yicha dunyo olimlari tomonidan ko‘plab ilmiy izlanishlar olib borilgan. Yosh pedagoglar tomonidan bu jarayon davom ettirilmoqda. Bildirilgan fikr-mulohazalardan ko‘rinib turibdiki, O‘qitishda ta’limiy metodlarning zamonaviy usullaridan samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega. Yuqoridagilarga tayangan holda, tadqiqot ishimiz maqsadini reja asosida belgilab oldik.

**Maqolaning ilmiy mohiyati.** Ta’lim metodi tushunchasi anchagina murakkabdir. Shu bois pedagogikada uning tobora aniq talqini xususida munozara haligacha davom etmoqda. Biroq bu tushunchaga beriladigan didaktlarning turli ta’riflariga qaramay, ularning nuqtai nazarlarini yaqinlashtiradigan qandaydir umumiylikni ham ta’kidlash mumkin. Ko‘pchilik mualliflar ta’lim metodini o‘quvchilarning o‘quv bilish faoliyatini tashkil etish usuli, deb hisoblashga moyildir [2].

Metod so‘zi yunoncha tadqiqot, maqsadga erishish yo‘li, usuli deganidir. Metod - eng umumiy ma’noda - maqsadga erishish usuli, ma’lum tarzda tartibga solingan faoliyat. Ko‘rinadiki, bu o‘rinda ham o‘qituvchining o‘rgatuvchi ishi va u tashkil etgan o‘quvchilarning faol o‘quv-bilish faoliyati uyg‘unlashadi.

**TADQIQOT NATIJALARI.** Ta’limiy metodlar — bu o‘quvchilarning bilimlarini shakllantirish, rivojlantirish va baholashda qo‘llaniladigan usullardir. O‘qitish metodlari o‘quvchining faol ishtirokini ta’minlashga qaratilgan, bilimni faqat ma’lumot shaklida qabul qilish bilan cheklanmay, balki uni amalda qo‘llay olish ko‘nikmalarini ham shakllantiradi [3].

O‘qitish metodlarini muvofiqlashtirish jarayoni pedagogik fanlarning rivojlanishi bilan chuqur bog‘liq. Pedagogika va psixologiya fanlarining asosiy maqsadi — ta’lim jarayonini ilmiy jihatdan tahlil qilish, o‘quvchilarni o‘qitishning samarali usullarini izlash va ishlab chiqishdir. Bu jarayonda pedagogik bilimlar, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi munosabatlar, ta’lim jarayonining struktura va mazmuni hamda o‘quvchi psixologiyasini hisobga olish zarur [4].

Dialektik uslub ta’lim jarayonining barcha qismlarini bir butun sifatida ko‘rishni ta’minlaydi. Bu uslubda metodlar o‘zaro bog‘liq va o‘zaro aloqada bo‘lishi kerak, chunki har bir metodning samaradorligi boshqalar bilan bog‘liqdir. Masalan, o‘quvchi faoliyatining yuqori darajada bo‘lishi uchun tanlangan metodlarning moslashuvchan va integratsiyalangan bo‘lishi lozim.

Pedagogik metodlar nafaqat ta’limni uzluksiz o‘tkazish uchun zarur bo‘lsa-da, balki o‘quvchilarning psixologik ehtiyojlariga ham javob berishi kerak. Har bir metodni muvofiqlashtirishda o‘quvchilarning individual xususiyatlari, rivojlanish darajasi va qobiliyatlari hisobga olinishi lozim [5].

Kognitiv psixologiya ta’lim jarayonining markaziga o‘quvchining bilimlarni qanday

Volume 3, Issue 04, April 2025
ISSN (E): 2810-6393
Website: https://academiaone.org/index.php/2

qabul qilishi va ishlatishini qo'yadi. Masalan, konstruktsionizm metodologiyasi bo'yicha o'quvchilar mustaqil ravishda yangi bilimlarni yaratish, o'rgangan materialni o'z tajribalari bilan bog'lashlari kerak. Shuningdek, davomiy rivojlanish psixologiyasi va motivatsion psixologiya o'quvchilarni ta'limga jalb etish va ularning faolligini oshirishda asosiy omil bo'ladi.

**XULOSA VA AMALIY TAKLIFLAR.**

O'qitish metodlarini muvofiqlashtirish pedagogik jarayonning samaradorligini oshiradigan ilmiy-mazariy asoslarni yaratadi. Har bir metodni tanlashda o'quvchilarning psixologik, kognitiv va motivatsion ehtiyojlarini hisobga olish muhimdir. O'qituvchi ta'lim jarayonini samarali tashkil etish uchun metodlarni muvofiqlashtirish, ularni integratsiya qilish, innovatsion texnologiyalarni qo'llashda malakali va metodik jihatdan to'g'ri yondashuvni qo'llash zarur [6].

O'qitish metodlarining muvofiqlashtirilgan tizimi ta'limning umumiy sifatini oshirishga, o'quvchilarning bilim olish samaradorligini yuqorilashishga xizmat qiladi. Bu esa o'z navbatida zamonaviy ta'lim tizimining rivojlanishi va global ta'lim sohasida muvaffaqiyatga erishishning asosi bo'lib xizmat qiladi [7].

Pedagogika fanida o'qituvchilarning amaliy tajribasini o'rganish va umumlashtirish asosida ta'lim metodlarini tanlashga o'quv-tarbiya jarayoni kechayotgan shart-sharoitlar va aniq holatlarga bog'liq muayyan yondashuvlar vujudga keladi. Ta'lim metodlarini tanlashda quyidagi holatlar inobatga olinishi lozim:

- zamonaviy didaktikaning yetakchi g'oyalari, ta'lim, tarbiya va rivojlantirishning umumiy maqsadlari; - o'rganilayotgan fan mazmuni va metodlari, mavzularining o'ziga xosligi; - xususiy fanlar metodikasining o'ziga xosligi va umumdidaktik metodlarni saralashga qo'yiluvchi talablarning o'zaro aloqadorligi.

**REFERENCES**

1. Soat, O. E. O. G. L. (2022). O'QITISHDA TA'LIMIY METODLARNI MUVOFIQLASHTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, *2*(5), 1076-1086.
2. Erkin o'g'li, S. O. (2022). O'qitishda ta'limiy metodlarni muvofiqlashtirishning ilmiy-nazariy asoslari. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(5).
3. Soat Oybek Erkin o'g'li ISSN: 2776-0979, Volume 5, Issue 5, May - 2024. IMPROVEMENT OF ECOLOGICAL CULTURE FOR PRIMARY CLASS STUDENTS IN LESSON AND EXTRA-CURRICULUM ACTIVITIES. 183-189.
4. Норбўтаев, Х. Б. (2020). Биологияни Фанлараро Синфдан Ташқари Машғулотларда Ўқитишда Ўқувчилар Экологик Тафаккурини Ривожлантириш Методикаси. *Современное образование (Узбекистан)*, (8 (93)), 74-79.
5. Narbutaev, H. B. (2021). Improving the knowledge of ecological content in pupils in interdiscipline for teaching biology. *Current Research Journal Of Pedagogics*, *2*(10), 12-16.
6. Narbutaev, H. B. (2021). Natural inter subjects formation of ecological thinking in school pupils. *Asian Journal of Multidimensional Research*, *10*(9), 419-426.
7. Babanazarovich, N. H. (2021). Using of innovative educational technologies in the improvement of ecological thinking by pupils in the field of biology sciences. *International Journal of Innovative Analyses and Emerging Technology*, *1*(6), 84-88.

ACADEMIA ONE
PEER REVIEWED JOURNALS

*Diversity Research: Journal of Analysis and Trends*
Volume 3, Issue 04, April 2025
**ISSN (E):** 2810-6393
**Website:** https://academiaone.org/index.php/2